<i>Xojiakbarova Dildora Abdug'afforovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyalari.....	586
<i>Sodiqova Shoista Akbarovna, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi</i>	
Til ta'limining hozirgi holati.....	590
<i>Kushkarbekova Marjan Usenovna</i>	
Talabalarning ijodiy rivojlanishida kretivlikning asosiy yo'nalishlari	593
<i>Alimova Gulchehra Qobilovna</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda yozma nutqning ahamiyati	596
<i>Safarova M. A.</i>	
Qoraqalpoq sinflarda o'zbek tili fanini o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	600
<i>Venera Allashova Tanirberdievna</i>	
Интеграция искусственного интеллекта в образование: польза или вред.....	602
<i>Karimbayev Atabek Merdanovich</i>	
Tibbiy kimyo darslarida talabalarning klinik tafakkurini rivojlantirish usullari	606
<i>Xolmurodova D. K., Safarova N. S.</i>	
Intellektual avlod – sog'lom jamiyat poydevori: tibbiyot talabalarining o'quv jarayonida kommunikativ kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	610
<i>Tursunbekova Nozima</i>	
Sportning voleybol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	613
<i>Roziqov Normurod Elmonovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	618
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalar integratsiyasi va korreksiyasi.....	622
<i>Olimova Nodirabegim Ibroximjon qizi, Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi</i>	
Sportning gandbol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarini takomillashtirish	626
<i>Berdiyev Jamshid Baxriddinovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari	631
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalari orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligining ahamiyati.....	636
<i>Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi</i>	
Ota-ona bilan munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'siri.....	641
<i>Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna</i>	
Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi.....	646
<i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	650
<i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>	
Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli.....	654
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Yengil dizatriyali bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari.....	658
<i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>	
Ochilmagan bo'z qalblar hazor.....	662
<i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>	



Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....	665
<i>Abdullayeva Charos Farkhodovna</i>	
Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils.....	670
<i>Ataullayev Fazliddin</i>	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligiga ta'siri	674
<i>Bovanova Umida Abduvahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli	679
<i>Bovanova Umida Abduvahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna</i>	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati	683
<i>Eshmurodova Shirin Oybekovna</i>	
Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari.....	686
<i>Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li</i>	
Talabalarda affliativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
<i>Omonova Nilufar Omon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi</i>	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
<i>Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna</i>	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi.....	702
<i>Qurbonova Nafisa Saidjonovna</i>	
Tarbiya panin oqituv arqali oqivshiflardin kreativ qabiletin rawajlandiruv.....	706
<i>Reymova Gulaim</i>	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
<i>Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi</i>	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi.....	714
<i>Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi</i>	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
<i>Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
<i>Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna</i>	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun hospital maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
<i>Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi</i>	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
<i>Ibragimova Shoira Normuminovna</i>	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
<i>Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli.....	743
<i>Usmonova Kamola Erkinovna</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
<i>X. A. Suyunova</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni.....	752
<i>Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna</i>	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
<i>Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li</i>	



Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
Абидова М. И., Абидова Д. М.	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
Амитова Майисия Рахмателлаевна	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
Гилязиева Насиба Михайловна	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
Ислямова Сония Юнусовна	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
У. Ш. Салимов	



O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA BOLA SHAXSI IJTIMOYIY SHAKLLANISHIGA DOIR PEDAGOGIK QARASHLARNING IFODALANISHI

Askarova Zuhra Shavkat qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti

“Pedagogika” mutaxassisligi magistratura yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri bo'lgan ertaklar yosh avlodning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Maqolada ertaklarning bolalar tafakkuri, tasavvuri va xulq-atvorini rivojlantirishdagi roli o'rganilib, ular orqali mehnatsevarlik, halollik, mardlik, adolatparvarlik va mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlarni singdirish imkoniyatlari ilmiy asosda yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: xalq ertaklari, bolalar tarbiyasi, o'zbek folklori, pedagogik texnologiyalar, axloqiy tarbiya, ma'naviy qadriyatlar, hikoya terapiyasi, maktabgacha ta'lim.

Abstract: This article analyzes the educational value of Uzbek folk tales from a scientific and theoretical perspective. The relevance of the study lies in the fact that fairy tales, as one of the forms of folk oral creativity, play an important role in shaping the spiritual and moral worldview of the younger generation. The article examines the role of fairy tales in the development of children's thinking, imagination, and behavior, and scientifically substantiates the possibilities of fostering such human qualities as diligence, honesty, courage, justice, and kindness through them.

Key words: folk tales, child education, Uzbek folklore, pedagogical technologies, moral education, spiritual values, story therapy, preschool education.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется воспитательное значение узбекских народных сказок. Актуальность исследования заключается в том, что сказки, являясь одним из образцов народного устного творчества, играют важную роль в формировании духовно-нравственного мировоззрения подрастающего поколения. В статье рассматривается роль сказок в развитии мышления, воображения и поведения детей, а также научно обосновываются возможности формирования через них таких человеческих качеств, как трудолюбие, честность, мужество, справедливость и доброта.

Ключевые слова: народные сказки, воспитание детей, узбекский фольклор, педагогические технологии, нравственное воспитание, духовные ценности, сказкотерапия, дошкольное образование.

KIRISH

Dunyo bo'ylab pedagogika sohasida olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy ishlarning aksariyati bolalar ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini, xususan, bolalarning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishi, shuningdek, ularning psixologik va pedagogik jihatdan shakllanish jarayonlarini ochib beradi.

Adabiyotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, bola shaxsining ijtimoiy rivojlanishi ham pedagogika, ham psixologiya fanlari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Psixologiyada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishi masalalari S.A. Belicheva, I.S. Kon, P.O. Lebedev, B.S. Merlin, A.V. Mudrik, B.D. Parygin, V.Ya. Yadov, S.V. Popova va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishi G'arbiy Yevropa va Amerika fanida ustuvor va dolzarb masala hisoblanadi. Ijtimoiy ta'lim muammosi A.V. Yevtich, G. Lapata, M. Galinech va boshqa olimlarning asarlarida tizimli ravishda o'rganilgan. D.J. Deming, E. Jones, M. Greenberg va M. Crowley, S.L. Odom, S.R. McConnell hamda W.H. Browning ilmiy ishlarida ijtimoiy kompetensiyaning o'zini o'zi anglash va shaxsiy muvaffaqiyatni qanday bashorat qilishi masalalari tahlil etilgan.

V. Mujich ijtimoiy kompetensiyani ijtimoiy ko'nikmalar, moslashtirilgan xulq-atvor va ijtimoiy tan olinishi sifatida talqin qiladi hamda ularning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi [4].

H.S. Xan va K.M. Kempl ijtimoiy kompetensiyani his-tuyg'ularni ifoda etish, o'z va boshqalarning ehtiyojlari hamda his-tuyg'ularini tushunish, muammolarni hal qilish, hamkorlik qilish, muzokara olib borish, ijtimoiy vaziyatlarni anglash va o'z xatti-harakatlarini ijtimoiy maqbul xulq-atvorga moslashtirish qobiliyati sifatida tavsiyalar beradilar.

V. Shvartsning fikricha, ijtimoiy kompetensiya bolaning rivojlanib borayotgan muhitida munosabatlarni o'rnatish, rivojlantirish va saqlashga ta'sir etuvchi bir qator qobiliyatlarni o'z ichiga oladi [5]. Shu bois, ijtimoiy kompetensiya o'ziga va boshqalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishni nazarda tutadi.

Shunga o'xshash tadqiqotlarni o'zbek olimlarining asarlarida ham uchratish mumkin. Xususan, A. Nurmatov biologik va tashqi ijtimoiy muhit omillarining bola shaxsining rivojlanishiga uyg'un ta'sirini Sharq mutafakkirlarining qarashlari, ilmiy tadqiqotlari va uzoq muddatli pedagogik tajribasi asosida yoritib bergan [6].

N.A. Baxrievaning ilmiy ishlarida esa maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishining pedagogik va psixologik xususiyatlari tahlil qilingan [7]. Biroq o'zbek xalq ertaklarining bolalarning ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni va ta'siriga bag'ishlangan tadqiqotlarning yetarli emasligi mazkur masalani chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishini o'rganishga qaratilgan nazariy yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning ijtimoiy kompetensiya hamda bola shaxsining rivojlanishiga oid qarashlari qiyosiy jihatdan o'rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi doirasida ijtimoiy kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy qismlari va rivojlanish omillari aniqlanib, ularning maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasidagi ahamiyati nazariy jihatdan asoslandi. O'zbek va xorijiy ilmiy manbalar tahlili asosida ijtimoiy kompetensiyaning bola shaxsining shakllanishidagi o'rni yoritildi hamda o'zbek xalq ertaklarining ushbu jarayondagi pedagogik imkoniyatlarini o'rganish zarurati metodologik jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalar adabiyoti yosh bolalarga inson bo'lish nimani anglatishini tushunishga yordam beradi hamda ularni atrofdagi dunyo bilan tanishtiradi. Ertaklar bolalarga muhim xabarlarini yetkazish imkonini beradi. Ertaklarda ayrim real bo'lmagan mavzular mavjud bo'lsa-da, ularning umumiy ta'siri ijobiy bo'lib, bolaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan asosiy elementlarni ta'minlaydi.

Ertaklar bolalarga asosiy insoniy nizolar, istaklar va munosabatlarni sog'lom tarzda hal qilishni o'rgatadi. Ushbu ko'nikmalarni egallash esa oxir-oqibat bolaning sog'lig'iga, hayot sifatiga, shuningdek, kelajakdagi qadriyatlarini va e'tiqodlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, ertaklarning bolalar rivojlanishidagi afzalliklari quyidagilardan iborat:

- bolalar o'z kamchiliklari va xatolarini tan olish bilan bog'liq og'riqli tajribadan qochgan holda, qiziqarli ertak qahramoniga aylanishadi, o'z muammolarini hal etadilar va mustaqil xulosalar chiqaradilar;
- ertaklar bolalar uchun himoyalangan muhit yaratib, ularga ichki dunyosiga aralashuvdan qo'rqmasdan o'zlari va atrof-muhit haqida yangi bilimlar olish imkonini beradi;
- ertakni tinglash jarayonida bolalar o'zlarini qahramonlar bilan taqqoslaydilar, o'zlariga yaqin bo'lgan qahramonlarni tanlaydilar va qo'rquv hamda xavotirlar bilan yolg'iz emasliklarini his qiladilar;
- eng muhimi, ertak qahramonlari boshidan kechirgan voqealarni tinglash bolalarda qiyinchiliklarni yengib o'tish ko'nikmalarini shakllantiradi, tafakkurni yangilaydi, muammolarni hal qilishda tajriba beradi va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Ertaklarning asosiy maqsadi bolalarga atrofdagi dunyoni sodda va tushunarli tilda tushuntirish hamda ularni hayotga tayyorlashdan iborat. Psixologlar ertaklarning bolaning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi bir qator omillarini qayd etganlar.

Sehrii voqealar empatiya, ya'ni rahm-shafqat tuyg'usini rivojlantiradi. Ertak qahramonlarining sarguzashlari bilan tanishgan bola ularning taqdiri haqida qayg'uradi, ular bilan birga yovuz kuchlarga qarshi kurashadi va qiyinchiliklarni yengishni o'rganadi.



Ertak voqealari bolalarning jinsiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Qizlar bo'lajak ona, yaxshi uy bekasi va sodiq do'st obrazlarini o'zlashtiradilar. O'g'il bolalar esa zaiflarni himoya qilish, kuchli bo'lish va oila boshlig'i bo'lish kabi rollarni qabul qiladilar. Madaniyat nafaqat insonlarning ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmui, balki jamiyatdagi bilim, me'yor va iste'dodlar yig'indisini ham ifodalaydi, ya'ni ijtimoiy rivojlanish darajasi madaniyatda mujassamlashadi ^[10].

Ertaklar orqali ota-onalar bolalarga "yaxshi" va "yomon" tushunchalarini farqlashni o'rgatadilar. Kichik yoshdagi bolalar ko'pincha nasihat va maslahatni to'liq anglay olmaydilar. Biroq ertaklar orqali bolalar turli vaziyatlarda o'zini qanday tutish kerakligini o'zlashtiradilar. Bolalarning asosiy ehtiyojlaridan biri kattalar bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlashdir ^[14].

Ertaklar bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ular nutq va tasavvurni boyitadi, chunki bola o'zini qahramon o'rnida tasavvur qiladi. Ushbu ko'nikmalar bola hayotida yangi bosqichni ifodalaydi hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun asos bo'lishi mumkin.

Ertaklar bolaning dunyoqarashini kengaytiradi va uni ijtimoiy hayotga moslashtiradi. Ertak voqealari orqali bola hayvonlar, sehrli joylar, malika va shahzodalar, shuningdek, turli obrazlar bilan tanishadi.

Ertaklar bolaning ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq bir qator xususiyatlarni aks ettiradi. Quyida ushbu jihatlar misollar asosida yoritiladi.

Jamiyat birligining ahamiyati. "Sholg'om" ertagida chol, kampir, bola, qiz, it va mushuk sholg'omni tortib chiqara olmaydilar, biroq sichqon yordamga kelgach, maqsadga erishiladi. Ushbu hikoya qat'iyat va jamoaviy mehnatning muhimligini ko'rsatadi. Katta va kichik a'zolarining birgalikdagi sa'y-harakati katta natijalarga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Ertak sodda va tushunarli bo'lsa-da, uning mazmuni va tarbiyaviy qiymati nihoyatda kuchlidir. Unda boboning tinimsiz mehnati orqali mo'l hosil yetishtirgani tasvirlanadi. Bu, avvalo, mehnatni ulug'lash g'oyasini ifodalaydi. Ikkinchidan, bola boshqalar bilan uyg'un va do'stona munosabatda bo'lib o'sishi lozimligi ko'rsatiladi. Fan tabiatda mavjud hodisalar va ularga tashqi ta'sirning o'zaro bog'liqligini o'rganadi ^[12]. Jamoa bilan birga yashash va faoliyat yuritish ijobiy natijalarga olib keladi.

Oilaning ustunligi. O'zbek xalq ertagi "Zumrad va Qimmat"da Zumrad boshqa joyda yaxshi sharoitga ega bo'lsa-da, o'z uyi va oilasiga qaytishni orzu qiladi. Bu holat insonning o'z oilasiga bo'lgan sadoqati va oilaviy munosabatlarning ustuvorligini ifodalaydi.

Ijtimoiy munosabatlarda do'stlikning ahamiyati. O'zbek xalq ertaklarida do'stlik va birodarlik g'oyalari muhim o'rin egallaydi. Masalan, "Qilich botir" ertagida qahramon duradgor, temirchi va suvchi bilan do'stlashadi. Ular birgalikda turli sinovlardan o'tib, hamkorlikning muhimligini namoyon etadilar.

Shuningdek, "Susambil" va "Uch qahramon aka-uka" ertaklarida ham do'stlarning birgalikdagi harakati katta kuch ekanligi g'oyasi targ'ib qilinadi.

Ijtimoiy munosabatlarda halol mehnat va ilmning ahamiyati. "Har kimning mehnati o'ziga shirin" va "Halol mehnat" ertaklarida halollik va mehnatsevarlikning jamiyatdagi o'rni yoritiladi. "Halol mehnat" ertagida boy odamning o'g'li barcha boyligini isrof qilganidan so'ng halol mehnat orqali yangi hayot boshlaydi va chin do'stlar orttiradi. Bu ertak halol mehnat insonni baxtga yetaklashini ko'rsatadi.

Mehmondo'stlikning ijtimoiy ahamiyati. O'zbek xalq ertaklarida mehmondo'stlik muhim axloqiy qadriyat sifatida talqin etiladi. Mehmonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish va bor narsani baham ko'rish milliy xususiyatlarni aks ettiradi. "Laylak va Tulki" ertagida ushbu g'oyaning noto'g'ri talqini tanqid qilinib, o'zaro hurmat va samimiyatning ahamiyati ta'kidlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ertaklarning bolalarni tarbiyalashdagi ahamiyati beqiyosdir. Ular bolalarga hayotga nisbatan muayyan nuqtai nazarni shakllantiradi, yaxshilik va yomonlikni farqlashga yordam beradi hamda murakkab vaziyatlarni qanday yengib o'tishni o'rgatadi. Ertaklar orqali bolalar boshqalar bilan o'zaro munosabatlar me'yorlarini, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va to'siqlarni anglay boshlaydilar. Ular qiyinchiliklarni yengib o'tish, muammolarni hal etish ko'nikmalarini egallaydilar va sodir bo'ladigan voqealar yaxshilik, adolat hamda mehr bilan yakunlanishiga ishonch hosil qiladilar.

Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib, o'zbek xalq ertaklarida bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga oid pedagogik qarashlarning ifodasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mazkur ertaklarda jamoaviy birlikning ahamiyati, oilaning ustunligi, ijtimoiy munosabatlarda do'stlikning roli, halol mehnat va bilimning qadriyat sifatida talqini yaqqol aks etgan. Shuningdek, ertaklar orqali ijtimoiy munosabatlarning muhimligi va mehmondo'stlikning ijtimoiy ahamiyati kabi g'oyalar ilgari suriladi. Zamonaviy mutaxassis qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'i nazar, jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan xabardor bo'lishi va o'z bilim hamda malakasini doimiy ravishda oshirib borishi zarur ^[13].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4327235>
2. Mirziyoyev Sh.M. Biz buyuk kelajagimizni jasur va olijanob xalq bilan birgalikda quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-4646908>
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 1999-yil. – 248 b.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 1997-yil. – 9-bet.
6. Karimov I.A. Bizdan obod va ozod vatan qolsin. № 2. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 1996-yil. – 380 b., 96–97-betlar.
7. Deming D.J. (2015). The Growing Importance of Social Skills in the Labor Market. NBER Working Paper No. 21473. Retrieved from <http://www.nber.org/papers/w21473>. <https://doi.org/10.3386/w21473>
8. Goleman D. (2008). Emocionalna inteligencija. Zagreb: Mozaik knjiga.
9. Katz L.G., & McClellan D.I. (2005). Poticanje razvoja dječje socijalne kompetencije. Zagreb: Educa.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.